



SHIFOKOR SO'ZI

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI
NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTIDA XALQARO OLIMPIADA BO'LIBO'TDI

Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Ukraina, Tojikiston, Qirg'iziston Respublikasi va yurtimizning qator oliy tibbiy dargohlari va institutlari o'qituvchi va talabalari ikki kun davomida Samarqand davlat tibbiyot institutida o'tkazilgan "Stomatologiyada estetik restavratsiyalash mahorati" Xalqaro olimpiadasida ishtirok etdi.

Pandemiya davridagi ma'lum cheklavlarni inobatga olgan holda olimpiada onlayn va onlayn tarzda o'tkazildi. Unda 7 davlatdan jami 180 nafar ishtirokchi qatnashdi.

Xalqaro tanlovning ochilish marosimida SamDTI rektori, professor Jasur Rizayev, Yaponiyaning Tokay markaziy shifoxonasi direktori, professor Sakamoto Junichi, Saratov davlat tibbiyot universiteti, Privojsk tadqiqot tibbiyot universiteti, Tojikiston davlat tibbiyot universiteti rektorlari va boshqa xorijiy va respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari va ilmiy-amaliy markazlarining rahbarlari tabrik so'zlari bilan ishtirok etib, talabalarni qo'llab-quvvatlashdi.

Olimpiada uch bosqichda o'tkazilib, har bir ishtirokchi test topshiriqlari, oldindan belgilangan yo'nalishlar bo'yicha og'zaki taqdimotlar qilish va amaliy ko'nikmalarini namoyon etish kabi mashg'ulotlarni bajargan



holda bellashishdi.

Ularni xolisona baholash maqsadida har bir bosqich uchun alohida onlayn va onlayn tarzda tashkil etilgan xorijiy va mahalliy mutaxassislardan iborat hay'at a'zolari mustaqil faoliyat olib borishdi.

Olimpiada dasturi doirasida "Eng yaxshi tadqiqot ishi" tanlovi ham o'tkazilib, unda

mamlakatimiz va xorijiy oliygo'harlar 6 nafar talabasining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari tinglanib, hay'at a'zolari tomonidan xolisona baholandi.

Olimpiadaning ikkinchi kunida barcha g'oliblar va ularning ustozlari tashkilotchilar tomonidan maxsus diplomlar, faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Samarqand davlat tibbiyot instituti tashabbusi bilan o'tkazilgan xalqaro talabalar olimpiadasi respublikamizda

tibbiyot sohasi uchun yangi malakali kadrlarni kashf etish, bo'lajak stomatolog-shifokorlarni zamon talabiga mos ravishda tayyorlab, ta'lim va amaliyot bog'liqligini yanada mustahkamlash, mamlakatimiz tibbiyot oliygo'harlarining dunyo yetakchi tibbiyot universitetlari va ilmiy markazlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish ishlariga o'zining munosib hissasini qo'shadi.





INSTITUTNI TALABALAR TURAR JOYIDA KONSERT UYUSHTIRILDI

2 aprel kuni Samarqand davlat tibbiyot instituti 3-son talabalar turar joyida konsert uyushtirildi. Talabalarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida o'tkazilgan musiqali tadbirda ma'muriyat, dekanatlar vakillari, Yoshlar Ittifoqini faollari va

institut talabalari faol ishtirok etdilar.

Institut Yoshlar Ittifoqi tomonidan tashkil etilgan madaniy uchrashuvda iste'dodli talabalar tomonidan ommabop va milliy kuy va qo'shiqlar ijro etildi, milliy raqs bo'yicha mahoratli chiqishlar

qilindi. Ishtirokchilar va tomoshabinlar, shu jumladan xalqaro tibbiy ta'lim fakultetini xorijlik talabalari, tadbir davomida madaniy hordiq chiqardilar va shunga o'xshash tadbirlarini muntazam ravishda tashkil etish bo'yicha takliflarni bildirdilar.

INSTITUT O'QITUVCHISINING YANGI KITOBLARI TAQDIMOTI

Samarqand davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs Markazini tashabbusi bilan o'tkazilgan "Kitobxonlik haftaligi" doirasida "Kitob ilm-marifat ko'zgusi" mavzusida taniqli o'zbek adiblari asarlari, jahon adabiyoti durdonalariga aylangan asarlar, tibbiyot sohasiga oid kitoblar, ilmiy-ommabop jurnallar o'rin olgan ko'rgazma tashkil etildi.

Shu joyni o'zida institut xodimi - pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi dotsent L.T. Razikova tomonidan tayyorlangan va nashr etilgan "Русский язык" o'quv qo'llanmasi, "Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari" monografiyasi va "Orasta qizlar" uslubiy qo'llanmani taqdimoti

ham o'tkazildi. Uchrashuvda chiqish qilganlar kitoblar muallif tomonidan zamonimiz ilg'or tajribalari asosida yaratilganligini, ularni mazmun-mohiyati va g'oyalari dolzarb ekanligi haqida ta'kidlab o'tdilar.

Jumladan, muallifning "Orasta qizlar" qo'llanmasida qizlarimiz odob-axloqi, salomlashish, kiyinish, muomala madaniyati, ularni oilaga tayyorlash haqida nafislik bilan maslahatlar berilgan, talaba-qizlarimizning milliy an'analarimiz va o'z millatining go'zal qadriyatlariga hurmat bilan qarash ta'kidlangan. Ishtirokchilar tomonidan kitobxonlikni institut talabalari va xodimlari o'rtasida keng targ'ib qilish bo'yicha ham mulohaza va takliflar bildirildi.



ПРЕЗЕНТАЦИЯ СТУДЕНЧЕСКОГО НАУЧНОГО КРУЖКА ПО НЕЙРОХИРУРГИИ

1 апреля состоялось большое заседание студенческого научного кружка по нейрохирургии Самаркандского государственного медицинского института с целью расширения деятельности кружка. На встрече принимали участие студенты-активисты кружка, преподаватели кафедры нейрохирургии, члены Совета

студенческого научного общества (СНО).

Выступившая на встрече начальник отдела по работе с одарёнными студентами У.Ф. Пайзуллаева рассказала о проводимой работе по повышению вклада студентов в развитие научного потенциала СамГМИ, привела информацию по организуемым

мероприятиям и онлайн курсам, призвала студентов к активному вовлечению в научно-исследовательскую деятельность кафедр института. Презентацию студенческого научного кружка по нейрохирургии провёл руководитель кружка - магистрант кафедры нейрохирургии Б.Абдувоитов, рассказавший про славную историю и большой потенциал нейрохирургической службы нашего института. В процессе встречи были показаны применяемые в нейрохирургии и современные инструменты, сделаны мастер-классы по их применению.

На заседании кружка также было объявлено про открытие практического диссекционного кадавер-курса, в котором участники получают уникальные знания по практической анатомии человеческого организма. На встрече активное участие также приняли и выступили с докладами иностранные студенты факультета международного образования института.

пресс-служба СамМИ



KARABAЕV ХУДОЙБЕРДИ КАРАБАЕВИЧ К 85-ЛЕТИЮ СО ДНЯ РОЖДЕНИЯ

85 лет для человека - время, для кафедры - мгновение. Писать о развитии комбустиологии в Самаркандском медицинском институте, отделе термических поражений, невозможно без рассказа об удивительном человеке, ученом, хирурге, руководителе - Худойберди Карабаевиче Карабаеве.

Худойберди Карабаевич Карабаев родился 21 апреля 1936 года в Пастдаргомском районе г. Самарканда. В 1960 году окончил Самаркандский медицинский институт, 1960-1961 годы аспирант Московского медицинского института, 1961 по 1963 годы работал главным врачом Пастдаргомского ЦРБ.

Научно педагогическая деятельность Худойберди Карабаевича Карабаева начинается 1963 года. 1963 по 1966 годы работал аспирантом кафедры госпитальной хирургии СамМИ, с 1966 года работал ассистентом той же кафедры. 1966 году защитил диссертацию на ученую степень кандидата медицинских наук на тему: "Ранняя кожная пластика при глубоких ожогах у детей" под руководством профессора А.Х. Хайдарова. 1978-1980 годы работал доцентом кафедры

госпитальной хирургии СамМИ. В 1979 году защитил докторскую диссертацию на тему: "Ожоговая болезнь у детей раннего возраста" под руководством профессора М.И. Долгина и Т.Л. Заяц.

1980-1997 годы работал заведующем кафедрой хирургии педфака СамМИ, 1997 по 2009 годы работал профессором кафедры хирургических болезней 6-7 курсов и урологии. С 2009 года по настоящее время работает профессором той же кафедры.

Худойберди Карабаевич Карабаев автор более 800 научных работ, опубликовал 10 монографий, 67 рациональных предложений, 29 методических рекомендаций, автор 4 патентов и 2 сертификатов. Научные работы были опубликованы в журналах и материалах конференций (съездах и конгрессах) в Российской Федерации, США, Англии, Австралии, Китае, Индии, в Украине и других государствах. Подготовка кадров всегда была в центре внимания Карабаева Х.К.

Под руководством Х.К. Карабаева

защитены три докторские (Б.С. Турсунов, М.Э. Эшмирзаев, Э.А. Хакимов) и пять кандидатские (Г.А. Хайдаров, А.Д. Давранов, С.К. Камалов, С.А. Рузибоев, Э.А. Хакимов) диссертации. В настоящее время подготовлены четыре кандидатские



Продолжение на 8 стр...

ROSSIYA OTMLARI SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTIGA QIZIQISH BILDIRMOQDA.

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, shu jumladan oliy ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida har tomonlama munosabatlar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Samarqand davlat tibbiyot institutini Ijevsk davlat tibbiyot akademiyasi bilan hamkorligi bu yaqin munosabatlarni yorqin misolidir.

Ikkala oliygoh keyingi yillarda talabalar va o'qituvchilarni akademik mobilligi hamda hamkorlikdagi ilmiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kamarbasta bo'lib kelmoqdalar.

Ijevsk davlat tibbiyot akademiyasiga 1933 yilda asos solingan va mazkur oliy ta'lim dargohi mintaqada sog'liqni saqlashni rivojlantirish uchun birinchi oliygoh hisoblanadi. Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasini yetakchi tibbiyot oliygohi sifatida tan olingan Ijevsk davlat tibbiyot akademiyasida 400 ortiq talabalar tahsil oladi, ularga 400 ortiq malakali professor-o'qituvchilar dars beradilar.

2021 yilni 3-4 aprel kunlari Ijevsk davlat tibbiyot akademiyasi rektori professor Aleksey Yevgenevich Shklyayev va qo'shimcha kasb ta'limi va tibbiy faoliyat

bo'yicha prorektori Mixail Valerievich Dudarevlardan iborat delegatsiyani ishchi tashrifi amalga oshirildi.

Tashrif doirasida ikkala hamkor oliygohni rahbarlari ishtirokida muzokaralar o'tkazilib amalga oshirilgan loyihalarni natijalari muhokama qilindi va zamonaviy fan va ta'limni rivojini inobatga olib hamkorlikni kengaytirish lozimligi ta'kidlandi. Do'stona va konstruktiv ruhda o'tgan muzokaralar davomida qo'shma ta'lim dasturlarida klinik ordinatorlar va tayanch doktoranturada ilmiy xodimlarni tayyorlash imkonini, bakalavriyat bosqichida qo'shma dasturlarini joriy qilish, o'qituvchilar va talabalar akademik almashuvini jadallashtirish, ilmiy-amaliy konferensiyalar va vebinarlar o'tkazish hamda ilmiy ishlarni hamkorlikda nashr ettirish kabi masalalar muhokama etildi.

Samarqand davlat tibbiyot instituti va Ijevsk davlat tibbiyot akademiyasini munosabatlari oliygohlararo halqaro hamkorlikni yorqin namunasi sifatida mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy tibbiyotni rivojlantirishga turтки bo'ladi, tibbiyot tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni ta'minlashga munosib xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

Sulaymon HALIMOV
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat
va ma'rifat bo'limi boshlig'i



INSTITUTDA "REKTOR VA YOSHLAR" UCHRASHUVI

Mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor, o'sib kelayotgan barkamol avlodga bo'lgan g'amxo'rlik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bilan ahamiyatlidir. Yoshlarga qaratilgan e'tibor, ularni qo'llab - quvvatlash kun sayin ortib borayotgani ular uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Zero yoshlar - vatan kelajagi, ertangi kunning bunyodkorlaridir.

7 aprel kuni Samarqand davlat tibbiyot instituti rektori professor Jasur Rizaev institutni bir guruh faol yoshlari bilan uchrashdi. Institut rektori uchrashuvni boshlab Prezidentimizning yoshlarga

bildirgan fikrlari, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, institutda bo'layotgan o'zgarishlar haqida batafsil gapirib berdi. Muloqot davomida Jasur Alimjanovich talaba-yoshlarni yanada faollikga chorladi, fakultetlarda jamoatchilik nazoratini o'rnatishga, ijtimoiy tarmoqlarda fakultetlar xayotini faolroq yoritishga chaqirdi. Talabalarimiz Xalqaro olimpiada va ko'riktanlovlarda qatnashish orqali institut nufuzini yanada oshirish masalasi alohida ta'kidlandi.

Uchrashuv samimiy, do'stona ruhda o'tkazildi va talabalar o'zlarining fikr-mulohazalari, yutuqlari va kelajakdagi

rejalari haqida gapirdilar. Uchrashuv davomida institutda joriy qilingan "Rektor stipendiyasi"ni 2020/2021 o'quv yili bo'yicha 35 nafar g'oliblari, "Imago Anatomica Vesalius" xalqaro onlayn tanlovini 5 nafar g'olibi, "Volga Med Science" xalqaro ishtirokidagi yosh olimlar va talabalarning Butunrossiya ilmiy-amaliy konferensiyasining tanlovida 3 nafar g'oliblariga sertifikatlar topshirildi.

Ochiq muloqot davomida yoshlar erishayotgan yutuqlari, o'zlarini qiynayotgan turli muammo va masalalar yuzasidan erkin fikr bildirdi.

QOZOG'ISTON-ROSSIYA TIBBIYOT UNIVERSITETI REKTORI INSTITUT MEHMONI

Samarqand davlat tibbiyot instituti rahbariyati tomonidan tizimdagi xalqaro aloqalarni kengaytirish, muhim kelishuvlar hamda istiqbolli shartnomalarning imzolanishiga erishilib, ahamiyatga molik xalqaro konferensiyalar va vebinarlar o'tkazib kelinyapti.

Mazkur yo'nalishlardagi ishlarning bajarilishidan maqsad, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, ilmiy va tibbiy innovatsiyalar, shuningdek, ta'lim berishda xalqaro tajribalar bazasini institutda shakllantirib, zamon talabiga mos mutaxassislar tayyorlashda faol ishtirok etishdan iborat.

Aynan shu maqsadlarni ko'zlagan yana bir xalqaro hamkorlik 10 aprel kuni Samarqand davlat tibbiyot institutiga Qozog'iston-Rossiya tibbiyot universiteti (Olmaota, Qozog'iston Respublikasi) delegatsiyasining rasmiy tashrifi asnosida amalga oshirildi.

Qozog'iston-Rossiya tibbiyot universiteti qo'shni davlatning yirik xususiy tibbiyot muassasalaridan biri bo'lib, tibbiyotning ko'plab ixtisosliklari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlaydi. Universitet mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha o'ziga xos dasturlari mavjud oliygoh sifatida nom qozongan.

Qozog'iston-Rossiya tibbiyot universiteti rektori, professor Nurlan Jaynabayev va xalqaro hamkorlik va strategik rivojlanish bo'yicha prorektori Aleksandr Li SamDTI rektori, professor Jasur Rizayev bilan uchrashib, ilmiy va ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash va hamkorlik qilish masalalarini muhokama qilishdi.

Institutda o'tkazilgan muzokaralarda Qozog'iston-Rossiya tibbiyot universiteti bilan hamkorlik memorandumini imzolandi.

Shuningdek, uchrashuvda rektorlar ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan tomonlarning

qarashlari hamda yondashuvlarini, ilmiy izlanishlar va tibbiyot sohasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirish, madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash istiqbollarini tahlil etishdi.

Kelgusida ikki oliygoh professor-o'qituvchilari, talabalar akademik almashuvi, ilmiy-tadqiqot va o'quv ta'lim sohasida, shu jumladan, qo'shma dastur asosida kadrlarni tayyorlash, hamkorlikda o'quv va ilmiy adabiyotlarni nashr ettirish bo'yicha kelishib olindi.

Yana bir muhim jihat, joriy yilning 16-17 aprel kunlari SamDTIda o'tkaziladigan "Stomatologiyada estetik restavratsiyalash mahorati" Xalqaro olimpiadasida mazkur oliygohlarning professor-o'qituvchilari va talabalarining faol ishtiroki bo'yicha ham kelishib olindi.

Zafar AMINOV

Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor



HINDISTON RESPUBLIKASI ELCHISINING TASHRIFI

Xalqaro ta'lim makoniga shaxdam qadamlar bilan kirib borayotgan Samarqand davlat tibbiyot institutida 2020 yil sentabrda xalqaro ta'lim fakulteti o'z faoliyatini boshladi. Xorijiy davlatlar talabari Medicine "MBBS" o'quv dasturi joriy qilib unga mazkur o'quv yilida 475 nafar xorijiy talabalar qabul qilingan. Shulardan 82 nafarini Hindiston Respublikasidan kelib o'qiyotgan talabalar hisoblanadi va talabalarni institutga jalb qilish bo'yicha "Axis" xalqaro universiteti bilan o'zaro shartnoma-bitimi imzolangan.

2021 yil 9 aprel kuni Samarqand davlat tibbiyot institutiga Hindiston Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Manish Prabhat tashrif buyurdi. Yuqori martabali mehmonga elchining kotibi Aditi b. Walunj, elchining yordamchisi Shri Bharga Mitra hamrohlik qildilar.

Mehmonlar avvalam bor institut rektori professor J.Rizayev bilan uchrashdi. Do'stona va qiziqarli o'tgan uchrashuvda rektor Jasur Rizaev hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari, xususan ta'lim sohasidagi hamkorlikka alohida to'xtalib o'tdi. Hindiston Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi tomonidan

ko'rsatilayotgan yordam, talabalarning viza olishidagi yengilliklar va bevosita institutning salohiyatini xolis e'tirof etganliklari, Hindiston Meditsina Ligasida Samarqand davlat tibbiyot institutining o'ziga xos yetakchi reytingda bo'lishini ta'minlashini ta'kidlandi. Rektor tomonidan institutda xorijlik talabalarga yaratilgan imkoniyatlar, shu jumladan o'qish tizimidagi ilg'or tajribalar, mahalliy va xorijlik yetakchi professor-o'qituvchilarning faoliyati, talabalar turar joylaridagi shart-sharoitlar, ular uchun maxsus oshxonalar tashkil etilganligi va unda aynan ularning vatanlaridan kelgan oshpazlar milliy ovqatlarini tayyorlashlari, hindistonlik talabalarning madaniy va sport tadbirlaridagi faol ishtiroki haqida alohida to'xtalib o'tdi. So'zining davomida institut rahbari hozirda xorijlik talabalar va institut ma'muriyati, hamda professor-o'qituvchilar va mahalliy talabalar o'rtasida iliq va yaqin munosabatlar o'rnatilganligini ta'kidlab, kelajakda Hindiston Respublikasidan kelib o'qiyotgan talabalarning o'z sohasining yetakchi shifokorlari bo'lishlariga umid bildirdi.


Hindistonning O'zbekistondagi elchisi Manish Prabhat institut rektoriga qabul uchun minnatdorchilik bildirdi va bugungi Hindiston-O'zbekiston munosabatlarini "oltin davr" deb atash mumkinligi,

hamkorlik munosabatlarida ta'lim sohasi alohida o'rin tutishini aytdi. Elchi janoblari tomonidan Hindistonda shifokor bo'lishni xohlovchi yoshlar juda ko'pchilikni tashkil etishi, talabalarning

O'zbekistonga kelib o'qishi imkoniyatlari paydo bo'lganligi va ko'pchilik talabalar aynan institutni tanlayotganliklari bejizga emasligini, ushbu institut Markaziy Osiyodagi eng tarixiy oliy tibbiy muassasa ekanligini, boy tajribaga ega professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatishini ta'kidladilar. Kelajakda hindistonlik talabalardan tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashda Samarqand davlat tibbiyot instituti ilg'or o'rinlarda qolishini aytib bu borada yanada ko'proq rivojlanishlar bo'lishiga ishonishini ta'kidladi. Uchrashuv so'ngida tomonlar bir-birlariga esdalik sovg'alari topshirdilar va ommaviy axborot vositalariga intervyular berildi.

Shundan so'ng, institut katta majlislar zalida xalqaro ta'lim fakultetining Medicine "MBBS" ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan Hindistonlik talabalarini mehmonlar bilan uchrashuvi o'tkazildi. Uchrashuvda chiqishlar qilgan Hindiston Respublikasining FvaME Shri Manish Prabhat, elchining kotibi Aditi b. Walunj, elchining yordamchisi Shri Bhargav Mitra, SamDTI Xalqaro ta'lim fakulteti dekani Mansur Aliev, Hindistonning "Axis International Business Solutions" vakili Nasim Ahmad institutda yaratilgan shart-sharoitlar, yuqori salohiyatli va tajribali professor-o'qituvchilar ularga saboq berishini ta'kidlab talabalarni yaxshi o'qishga, barcha institut ichki qoida va nizomlariga rioya etishga, yaxshi xulq-atvor bilan barchaga namuna bo'lishga chaqirdilar. Uchrashuvda mehmonlar talabalarning qiziqishlari bilan o'rtoqlashdi, savollariga javob berishdi va ularning kelgusi o'qishlarida omadlar tilab qoldilar. Shu bilan Hindiston Respublikasi Favqulodda va muxtor elchisining institutga rasmiy tashrifi o'z yakuniga yetdi.

Mansur ALIYEV
Fakultet dekani



TUMANLARIDA CHUQURLASHTIRILGAN TIBBIY KO'RIKLAR O'TKAZILDI

Aholi orasida zamonaviy tibbiy-profilaktika tadbirlarini yanada takomillashtirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ibot qilish, fertil yoshdagi ayollar, homiladorlar, bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar, nogironlar, surunkali kasalligi bor bo'lgan bemorlar holidan xabar olish va tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha Samarqand davlat tibbiyot institutida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Instituti 1-son klinikasining bosh shifokori professor N.A.Abdullaeva boshchiligida 20 ga yaqin professor-o'qituvchilar Bulung'ur tuman Mingtepa

mahallasi "Do'stlik" QVPda aholiga ko'p mutaxassisli chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik o'tkazdilar. Unda laborator tahlillar, ultratovush tekshiruv, EKG taxlili tekshiruvlari tashkil etildi. Jumladan surunkali kasalliklar aniqlangan 102 nafar bemorlarga shahar va viloyat ixtisoslashgan davolash muassasalariga yo'llanmalar berildi.

2021 yil 7 aprel kuni institutni yuqumli kasalliklar kafedrasi mudiri, dotsent N.A. Yarmuxammedova boshchiligida kafedra o'qituvchilaridan iborat malakali mutaxassislar Samarqand viloyatining Jomboy tumani tibbiyot birlashmasida 60 nafarga yaqin dispanser nazoratida turgan bemorlarda chuqurlashtirilgan

tibbiy ko'rik o'tkazdilar. Shuningdek, kafedra xodimlari Jomboy tumani aholisini "Covid-19"ga emlanish jarayonida ham faol qatnashdilar, aholiga emlash samaradorligi haqida tushuntirish ishlari olib borishdi.

Institut professor-o'qituvchilari joylarda aholi orasida "Xavfsiz emlash qoidalari", "Emlash nima uchun kerak?", "Aholini sog'lomlashtirish yo'llari" mavzularida davra-suhbatlarini ham o'tkazmoqdalar.

Samarqand davlat tibbiyot instituti mutaxassislari tomonidan o'tkazilayotgan ko'riklar va tushuntirishlar joylarda tibbiyot birlashmalari va aholi tomonidan minnatdorchilik bilan qabul qilinmoqda.

SAMDTI TALABALARI SPORT TIBBIYOTI BUTUN ROSSIYA OLIMPIADASIDA 2-O'RIN G'OLIBLIGINI QO'LGA KIRITDILAR

Sport tibbiyoti bo'yicha Ikkinchi Butunrossiya "Tibbiy marafon" Xalqaro Olimpiadasi o'tkazildi. Xalqaro musobaqalarda Rossiya va MDH davlatlari 22 oliyohidan 26 ta jamoalar qatnashdilar.

Respublikamiz oliyohlaridan Butunrossiya sport Olimpiadasida Samarqand davlat tibbiyot institutini "Sport xizmatkorlari" jamoasi ishtirok etdi.

Institutni turli kurs va fakultet talabalaridan iborat jamoasi - J.Gapparov (stomatologiya fakulteti 5 kurs talabasi), A.Abdusamatov (tibbiy-pedagogika fakulteti 6 kurs talabasi), D.Djalolov (pediatriya fakulteti 5 kurs



talabasi), X.Najmitdinov, G.Uralova (farmatsiya fakulteti 2 kurs talabalari), Sh.Jalolitdinova, M.Ochilova (pediatriya fakulteti 4 kurs talabalari) tibbiy reabilitatsiya va sport tibbiyoti kafedrasini mudiri dos. Z.F. Mavlyanova halqaro onlayn Olimpiadani barchaya 6 yo'nalishida (stansiyasida) ishtirok etib 3 sho'bada - "Antidoping nazorat", "Videoroliklar tanlovi", "Yuqori natijalar sporti" g'oliblikni qo'lga kiritdilar. SamDTI "Sport xizmatkorlari" umumjamoaaviy hisobda faxrli 2-chi o'rinni egallab "Butunrossiya tibbiy marafoni" xrustal kubogini olishga muvaffaq bo'ldi.

Institutimiz talabalarini qo'lga qiritgan g'oliblik bilan tabriklaymiz va yangi zafarlar tilab qolamiz!

VAZIR VA IQTIDORLI YOSHLAR UCHRASHUVI

Joriy yilning 19 - 20 aprelida Samarqand davlat tibbiyot institutiga Madaniyat vaziri, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Nazarbekov Ozodbek Axmadovich tashrif buyurdi. Ushbu tashrifda madaniyat xodimlari va san'atkorlar hamda talabalar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda Ozodbek Axmadovich quyidagi iliq fikrlarini yoshlarga yetkazdi: "Assalomu alaykum hurmatli talabalar, ushbu institutda juda ajoyib sharoitlar bor ekan, talabalarni dam olish kunlarini, Samarqanddagi yoshlarimizni, farzandlarimizni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida juda ko'p rejalar amalga oshirish istagidamiz. Kutib o'tirmadik birdan amaliy ishlarni tashkil etishga qaror

qildik, bundan keyin viloyatimizdagi madaniyat boshqarmasi sizlarni xizmatangizda bo'ladi. Viloyatimizda sizlarga ma'qul keladigan ijrochilarimiz-san'atkorlarimiz bor bu bilan albatta cheklanmaymiz, boshqa viloyatlar hamda poytaxtdan san'atkorlarni kelishini ham ta'minlab beramiz.

Shaxsan ijodkor sifatida sizlarga shuni aytmoqchiman, sizlarni orangizdan ijodkorlar yoshlar orasidan ansambllar, teatr studiyalari tashkil etamiz. Xudo xohlarsa biz har bir OTMdan 5 tagacha ansambl tashkil etishni reja qildik. Mana sizlar tibbiyot sohasida ta'lim olasizlar, umuman bu sohada yangilik qilish uchun nima kerak? Ijod qilish kerak, ijodiy yondashuvigina sizlarni yangi marralarga eltadi, shuning uchun men sizlarga

shaxsan Vazir sifatida aytmoqchiman, mana shu ansambllarni tashkil etishimiz ertaga bu sizlarni ijodiy fikrlashlaringizni oshiradi va bu katta marralarni egallashga yordam beradi. Biz hammamiz birgalashsak biz hammamiz yangi O'zbekistonni quramiz, bunda hammamizni burchimiz-hissamiz bo'lishi shart! Yurt qurish, Vatan qurish bu xalqni ishi bunga har bir inson daxldor.

Marrani katta olib sadoqat bilan halol mehnat qilsak xudo xohlarsa o'ylaymanki katta natijalarga erishamiz!" - deya yoshlarni ruhlantirdi.

Tadbirda iqtidorli talaba yoshlar o'zlarining sahna ko'rinishlari va ajoyib taronalarni ijro etishib o'z mahoratlarini ko'rsatishdi.

20 aprel kuni esa 1-son TTJda konsert namoyish etildi.



TIBBIY PEDAGOGIKA FAKULTETI TALABALARINING URGUT TUMANI 31 MAKTABGA TASHRIFI

Bugun 15 aprel kuni SamDTI Tibbiy pedagogika fakulteti dekan o'rinbosari Uraqov Shokir Ulashovich boshchiligida bitiruvchi 6 kurs talabari Samarqand viloyati Urgut tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 31-umumiy o'rta talim maktabining 7-9-10 sinflarda Biologiya, Ximiya, Ingliz tili va Rus tili darslarini o'tkazdilar. Bunda 7A sinfda Kimyo faniga Anarov Ilxom 606-gurux, Yunusov Sardor 605-gurux, 7B sinfda Umirkulov Bunyod 606-gurux, Norbutaev Islom 608-gurux, 9A sinfda rustili darsiga Mirzaev Mirza 607-gurux va Allazov Iskandar 607-gurux, 9B sinfda Biologiya darsiga Melikboboev Abbas 608-gurux va Xasanov Eldor 608g'gurux, 10B sinf Ingliz tili darsiga Uralov Bunyodxon 608-gurux va 11 sinf Informatika darsiga esa dekan o'rinbosari Uraqov Shokir Ulashovich birlashtirildi.

Darslarni boshlashdan oldin dekan o'rinbosari Urakov Shokir Ulashovich har bir sinfga yuqorida nomlari keltirilgan talabalarni sinf o'quvchilariga tanishtirdi va ularni kelgusida o'z yo'nalishlarini topishda barchaga Bugun xalqimiz, Vatanimiz intilayotgan milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, maqsad va vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev boshchiligida ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hujjatlarda aniq belgilab berilganligi, jahondagi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyat, rivojlanish tendensiyalari, istiqboldagi taraqqiyot yo'llari chuqur tahlil



etilganligi o'quvchilarga aytib o'tdi.

O'qituvchilar tomonidan bugungi kunda o'quvchilarning erkin fikrlashga o'rgatish va ularning so'z boyligini oshirish, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi yuzasidan bir qancha fikrlar aytib o'tildi. O'quvchilarni kelajakda o'zlari qiziqqan kasblarni tanlashida va hayotda to'g'ri yo'lni topishida bugungi olingan bilimlarning naqadar muhim ekanligi hamda kasb tanlashda adashmaslik zarur ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng institut bitiruvchi talabari sinflar kesimida ham darslarni o'tib berishdi va o'quvchilarni qiziqtirgan savolariga javob berdilar.

Shu munosabat bilan maktab ma'muriyati SamDTI tibbiy pedagogika fakulteti dekanati va talabalariga o'z minnatdorchiligini bildiradi.



INSTITUTNING XALQARO ALOQALARI KENGAYMOQDA

Samarqand davlat tibbiyot instituti tomonidan ta'lim va ilmiy faoliyatning ishlab chiqarish amaliyoti bilan uzviy integratsiyalashuvi uchun shart-sharoit yaratish, tibbiyotga zamonaviy innovatsion va ilmiy-pedagogik texnologiyalar, eng yangi yutuqlarni qo'llagan holda, xorijning tibbiyot sohasidagi ta'lim muassasalari bilan birgalikda yuqori malakali professorlar, ilmfan mutaxassislarining o'zaro fikr va tajriba almashishlari maqsadida dunyoning yetakchi ta'lim muassasalari bilan muntazam hamkorlik qilib kelinyapti.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasining qator tibbiyot

universitetlari va ilmiy-tekshirish institutlari bilan mustahkam hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Hamkorlikda integral ma'ruzalar, amaliyot seminarlari, ilmiy ishlar taqdimotlari o'tkazib kelinmoqda.


14 aprel kuni Rossiyaning I.I. Mechnikov nomidagi Shimoli-G'arbiy davlat tibbiyot universitetidan bir guruh professor-o'qituvchilar Samarqand davlat tibbiyot institutiga tashrif buyurishdi. Shimoli-G'arbiy davlat tibbiyot universitetining patologik anatomiya kafedrasi mudiri, "Genlar va moddalar" jurnali bosh muharriri, professor Roman Deev va shu kafedra katta o'qituvchisi Mixail Mavlikeev Samarqand davlat tibbiyot

institutida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy seminar hamda akademik mobillik dasturlarida ishtirok etishdi.

Tashrif davomida professor Roman Deev Samarqand davlat tibbiyot instituti o'qituvchilari, yosh olim va talabari uchun "Yangi koronavirusli infeksiyada o'pkalar patologik anatomiyasi: reaktivlik va nafas yo'llari epiteliyalarning generatsiyasi", "Ichak epiteliysi gistofiziologiyasi normasi" mavzularida ma'ruza qildi. Mehmونlar, shuningdek, akademik mobillik doirasida pediatriya va stomatologiya fakultetlari talabari uchun gistologiya fanidan hamda davolash fakulteti talabari uchun patologik anatomiya fanidan ma'ruza o'qishdi.

Do'stona muhitda o'tgan uchrashuvda SamDTI rektori Jasur Rizaev va rossiyalik professor Roman Deev ta'lim va fan sohasidagi hamkorlik ikki mamlakatda ham tibbiyotga oid innovatsion yangiliklarga yo'l ochuvchi va ushbu jarayonni tezlashtiruvchi yuqori malakali mutaxassislarining yangi avlodini tayyorlashga turtki bo'lishini e'tirof etdilar.

Firdavs ORIPOV
Kafedra mudiri



SamDTI quyidagi lavozimlariga tanlov e'lon qiladi

DAVOLASH ISHI FAKULTETI

1-son xirurgik kasalliklar kafedrası, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

4-son ichki kasalliklar kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

PEDIATRIYA FAKULTETI

Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrası, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

3-pediatriya va tibbiy genetika kafedrası, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

TIBBIY PEDAGOGIKA FAKULTETI

Pedagogika psixologiya kafedrası, assistent lavozimiga -2 o'rin;

Tillar kafedrası, assistent lavozimiga -2 o'rin;

Informatika va informatsion texnologiyalar kafedrası, assistent lavozimiga -1 o'rin;

Tibbiy va biologik fizika kafedrası, assistent lavozimiga -1 o'rin;

Umumiy xirurgiya kafedrası, assistent lavozimiga -2 o'rin;

STOMATOLOGIYA FAKULTETI

2-son stomatologiya kafedrası, assistent lavozimiga -1 o'rin;

DIPLOMDAN KEYINGI TALIM FAKULTETI

Akusherlik va ginekologiya, neontologiya kursi, dotsent lavozimiga - 1 o'rin.

OLYI HAMSHIRALIK ISHI FAKULTETI

3-son ichki kasalliklar kafedrası va **endokrinologiya** kursi, assistent lavozimiga -1 o'rin;

TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrası, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

Tibbiy biologiya va genetika kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin

Assistent o'qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri A.Temur ko'chasi, 18 uy.

...продолжения. Начало в 3 стр.

КАРАБАЕВ ХУДОЙБЕРДИ К 85-ЛЕТИЮ СО ДНЯ РОЖДЕНИЯ

и одна докторская диссертация.

Профессор является высоко эрудированным специалистом с большим клиническим опытом, грамотным педагогом, блестящим хирургом и диагностом, чутким и отзывчивым врачом, требовательным к себе и подчиненным. Х.К. Карабаев обладает высокой оперативной техникой, внедряет новые достижения медицины в практику здравоохранения. Им выполнены тысячи хирургических операций, большая часть из которых оригинальны.

По инициативе профессора Карабаева Х.К. 1999 году на базе Самаркандского филиала РНЦЭМП организована отделение ожоговой реанимации с последующим отделением комбустиологии.

Родина высоко оценила заслуги профессора. Он был награжден медалями Республики Узбекистан: с 1990 года отличник здравоохранения республики, неоднократно был награжден почетными грамотами Областного отдела здравоохранения и Самаркандского медицинского института.

Коллектив Самаркандского медицинского института, Самаркандский филиал РНЦЭМП и кафедра хирургических болезней №2 и урологии

OCHIQ MA'RUZALAR

2021 yil 1- may kuni 2-son otorinologiya kafedrası mudiri, dotsent **M.T.Nasretdinova** tomonidan **Davolash ishi fakulteti 511-515 guruhlar** talabalari uchun "**Hiqildoqning o'tkir va surunkali kasalliklari, zamonaviy tekshirish va davolash usullari**" mavzusida ochiq ma'ruza o'tkaziladi.

Manzil: Samarqand shahar Viloyat ko'p tarmoqli shifoxonasi **2-son otorinologiya kafedrası ma'ruza zali.**

2021 yil 5- may kuni sud tibbiyoti kafedrası mudiri, professor **S.I. Indiaminov** tomonidan **tibbiy pedagogika fakulteti 405-408 guruh** talabalari uchun

"**Sud-tibbiy tanatologiya. O'limdan so'nggi o'zgarishlar**" mavzusida ochiq ma'ruza o'tkaziladi.

Manzil: Samarqand shahar A.Mansur Motrudiy 21, **sud tibbiyoti kafedrası ma'ruza zali.**

2021 yil 21- may kuni sud tibbiyoti kafedrası mudiri, professor **S.I. Indiaminov** tomonidan **tibbiy pedagogika fakulteti 405-408 guruh** talabalari uchun "**Sud-tibbiy travmatologiya. O'tmas va o'tkir vositalar ta'siridagi jarohatlar sud tibbiy ekspertiza**" mavzusida ochiq ma'ruza o'tkaziladi.

Manzil: Samarqand shahar A.Mansur Motrudiy 21, **sud tibbiyoti kafedrası ma'ruza zali.**

SAMARQAND - 2021

Tahririyat raisi:

J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:

E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

G'U. LUTFULLAEV,

S.A. KARABAEV,

S.E. MAMARADJABOV,

A.A. AXMEDOV,

J.F. KADIROV.

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:
N. MUSURMANOV

Operator va sahifalovchi:

A. KELDIYAROV

Fotomuxbir:

O. AXMEDOV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTI bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.
Nashrga ruxsat berildi: 2021 yil, 24 aprel. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 174